



Dildora BARATOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: dildorabarato93@gmail.com

NamDU katta o'qituvchisi, PhD H.Abduvohidova taqrizi asosida

THE IMPORTANCE OF METAPHOR IN APHORISMS

Annotation

In this article, one of the stylistic devices of metaphor's importance is explained. As metaphor is used in oral and written speech of being complex unit, each of the meaning of metaphor in aphorisms is explained. It is devoted detailed to why metaphor is used more rather than other stylistic devices.

Key words: aphorism, stylistics, stylistic means, metaphor, metaphorical transfer.

ВАЖНОСТЬ МЕТАФОРЫ В АФОРИЗМАХ

Аннотация

В этой статье объясняется один из стилистических единицы важности метафоры. Поскольку метафора используется в устной и письменной речи как сложная единица, объясняется каждое из значений метафоры в афоризмах. Подробно рассказывается о том, почему метафора используется чаще, чем другие стилистические единицы.

Ключевые слова: афоризм, стилистика, стилистические единицы, метафора, метафорический трансфер.

AFORIZMLARDA METAFORANING AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada aforizmlar tarkibida uchraydigan stilistik vositalardan biri bo'lgan metaforaning ahamiyati yoritib beriladi. Og'zaki hamda yozma nutqda faol qo'llaniladigan aforizmlar o'ziga xos lingvistik murakkab birlik bo'lganligi tufayli, ularda uchraydigan metaforaning har bir aforizm tarkibida qanday ma'noda ifodalanyotganligini tushuntirib berishga bag'ishlangan. Aynan metaforaning boshqa stilistik birliklardan ko'ra ko'proq qo'llanilishi batafsil yoritishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: aforizm, stilistika, stilistik vosita, metafora, metaforik ko'chim.

Kirish. O'zbek xalqi boshqa millat vakillaridan o'z nutqida ko'plab maqol, aforizm va bir qancha latifalarni qo'llashi bilan ajralib turadi. Ushbu vositalarni nutqda foydalanish, uni qizg'in ba'zan baxsli qilishga turtki bo'ladi. Aynan hozirgi zamoniy dunyoda aforizmlardan nutqda foydalanish kishining qanchalik ilmga befarq emasligi, xatto hayotdagi vaziyatlarni ham aforizmlarga bog'lab o'z nutqida foydalanish, aforizmlarga nisbatan insonlarni befarq emasliklarini guvohi bo'lish mumkin. Ayniqsa aforizmlar tarkibida uchraydigan stilistik vositalar aforizm mazmunini yanada chuqur taxlil qilishga o'quvchini undaydi. Aforizmlar tarkibida aynan metaforaning boshqa stilistik vositalarga nisbatan keng qo'llanilishi va ularning xususiyatlarni batafsil yoritib berish, zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Aforizmlarni tadqiq qilishda ko'plab jaxon hamda o'zbek olimlari o'z xissalarini qo'shgan. Xususan, R.Vendel [1], V.Vaddel [2], R.Terrense [3], B.Koyli [4], M.Shepers [5] o'z ishlarida aforizm va uning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. O'zbek olimlaridan Z.Toshpo'latov [6] ham aforizmlarni adabiy jihatdan o'rganib, uning semantik jihatlarni batafsil yoritgan. G.Qobuljonova [7], G.Nasrullayeva [8], Sh.Mamaraimova [9] olimlaramiz metaforaning qo'llanilishi, ularning kontekstlarda qanday ma'no kasb etishi, ularning turlari haqida o'z ilmiy ishlarida yoritib berishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek va ingliz aforizmlari tarkibidagi uchraydigan metaforani aniqlashda differensial-semantik usullaridan foydalanildi. Aforizmlar tarkibidagi eskirgan, hamda yangi so'zlarning qo'llanilish holatidan kelib chiqib, tarixiy metoddan foydalanilgan.

Taxlil va natijalar. Aforizmlarni taxlil qilish jarayonida shuni guvohi bo'ldikki, ko'p hollarda ularning

tarkibida stilistik vositalardan biri bo'lgan aynan metaforaning qo'llanilish doirasi boshqa birliklarga nisbatan ancha kengroq. Shu jihatdan stilistika aforizmlar tarkibida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tilshunoslikning bo'limi sifatida yuqori o'ringa ega. Chunki aforizmlar tarkibida uchraydigan turli xil stilistik vositalar aforizm mazmuni o'quvchini yanada chuqurroq fikrlash va tushunishga undaydi. Stilistik vositalardan biri bo'lgan metaforaga turli olimlar o'zlarining izohlarini keltirib o'tishgan. "Ko'chma so'z (metafora) narsaga xos bo'lmagan, jinsdan turga, yoki turdan jinsga, yoxud turdan turga ko'chirilgan yoyinki o'xshatilgan so'zdir" [10]. A.Potebnya "metafora qisqargan o'xshatishdir" deya ta'rif keltirgan. Ya'ni o'xshatishga xos bo'lgan "kabi", "huddi", "aynan", "o'xshamoq" va hakazo so'zlar tushirilsa, metafora yuzaga keladi deya e'tirof etgan. Polyak olimi Y.Kasyan ham yuqoridagi fikrni rivojlantirishga harakat qiladi: "Agar kelib chiqishini tekshiradigan bo'lsak, shaksiz, aniqlash mumkin bo'ladiki, u yoki bu metafora u yoki bu o'xshatishdan rivojlangan bo'ladi deb fikr bildirgan. [11]. Olimlarning fikrlaridan shuni aytish mumkin-ki, har qanday o'xshatishni namoyon qilish bilan birga uni inkor etish ya'ni o'xshatishda ziddiyatni ham uchratish mumkin, bu holat esa metaforada ham namoyon bo'ladi.

Ushbu fikrlarni izohlash uchun olim va ulamolar tomonidan beriladigan fikrlarga yuzlanamiz va ularni taxlil qilamiz.

*Dushman firibin yema,
Va maddox xushomad in chin dema.*

A.Navoiy

Mazkur aforizmida alloma metaforani qo'llab, dushman hiyla-nayrangini yeb bo'lmas narsaga o'xshatib, uni yema deya metaforini chiroyli tasvirlab bergan. Bundan

tashqari majoziy ma'noda xushomadgo'ylikni chin deb qabul qilma deya ogohlantiradi.

Boshiga ish tushgan odamni shilish — o'likning kafanini yechib olishdek gap.

A.Qahhor

Ushbu aforizmida biror qiyin vaziyatga tushgan insonni aldash, uni chuv tushurib ketishlikni xatto yechib bo'lmas kiyim kafanni yechib olishdek deya o'xshatish keltirib o'tilgan.

If I have seen far from everyone, it is because I stand on the shoulders of the greats.

I.Nyuton

Mazkur ingliz aforizmidagi keltirilishicha agar men hammadan uzoqni ko'rgan bo'lsam, bu mening buyuklar yelkasida turganligimdan deya ushbu aforizmdagi I.Nyuton yoritib bergan. Ushbu fikrlari orqali meni qo'llab-quvvatlovchi insonlar mavjud va ular hamisha men uchun yordamga tayyor qabilida fikrni ifodalagan.

Ahmoq kishi hikmat lazzatini bilmaydi, bamisoli tumov kishi gulning hidini sezmagandek.

Zamaxshariy

Mazkur aforizmida metaforadan tashqari antiteza stilistik vositasini ham uchratish mumkin. Aforizmdagi "hikmat lazzati" so'zlari orqali donolikni bilmaydigan, his etmaydigan insonni uning lazzatini bilmaydi deya "tam"ga qiyoslaydi. Gul hidini sezmaslik o'zi asli mavjud sezgi bo'lsa-da, uni metaforik tarzda uni inkor etadi ya'ni hatto shu hidniyam bilmaydi, bila olmaydi deya ta'riflaydi.

Keep the eyes wide open before marriage and half shut afterward.

T.Fuller

Ushbu aforizmida T.Fuller turmush qurishdan oldin umr yo'ldosh tanlashda uni bilib, tanib, hamma yaxshi va yomon fazilatlarini o'rganib so'ng turmush qurishni, oila qurib bo'lgandan so'ng esa, uning barcha kamchiliklariga ko'z yumishi haqida ta'kidlamogda. Shundagina oilaning yaxshi bo'lishi va baxtli hayot kechirishiga ishora qilgan. Mazkur aforizmida ko'zingni och deya uning yaxshi hamda yomon fazilatlarini turmush qurush oldidan ko'rgin, bilgin deya maslahat bergan.

O'likdir hayotda hunarsiz kishi,

Hunarsiz bo'lgandan o'lgani yaxshi!

Termizi

Alloma ushbu aforizmida hunari yo'q bo'lgan insonni o'lik kabi ekanligini aytib o'tgan, ya'ni hunari yo'q insonni hayotida na mazmun, na ma'no bor ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu metaforik tasvirdan tashqari mubolag'a stilistik vositasidan foydalanilgan. "hunarsiz bo'lgandan o'lgani yaxshi" deya hunarsizlik xatto o'lim darajasigacha bo'rtirib tasvirlangan. "Hayot" va "o'lim" tushunchalari orqali ushbu aforizmida antiteza holati namoyon bo'lgan.

Some people carry their hearts in their heads, many carry their heads in their hearts. The difficulty is to keep them apart and yet both actively working together.

Sterne

Ushbu aforizm mazmunida ba'zi insonlar yuragini boshida ko'tarib yursalar, ba'zilar esa boshini yuragida saqlaydi. Eng qiyini ularni bir-biridan ajratib turishda va shu bilan birga ikkisini ham faol ishlashidadir deb ta'riflangan. Sterne ushbu fikrlari orqali "hearts in their heads" deya yurakni boshida ko'tarish deya hissiyotlardan aqlni ustun

qo'ysa, ba'zilar esa "heads in their hearts" deya aqlni hissiyotlar ichida ekanligiga ishora qilgan. His tuyg'u va aqlni ramziy ifodalab ko'rsatgan.

Kemada suzayotgan kishi tiriklar qatorida ham, o'liklar qatorida ham bo'lmaydi.

Beruniy

Ushbu aforizmida keltirilgan "kemada suzayotgan kishi" holati insonni ham o'limi, ham hayoti, tirikligi bilan bog'liq holatni ifodalab kelgan. Ushbu holat orqali metaforaning yorqin misolini ko'rsatsa, alloma o'liklar qatorida ham, tiriklar qatorida ham bo'lmaslikni tasvirlab, antiteza holatini namoyon etgan.

Suspicion always haunts the guilty mind; the thief doth fear in each bush an officer.

U.Shekspir

Mazkur aforizmida gumon hamisha aybdor ongini ta'qib qilishi, qo'rqib turgan o'g'rini esa har bir butada ofitser borligini his etadi deya ifodalaydi. Mazkur aforizmida U.Shekspir eski arxaiik so'zlardan "doth" so'zidan foydalangan bo'lib, o'sha davming uslubini ko'rsatib beradi. Ushbu fikrlar orqali kishi o'zini aybdor his etsa, aybdorlik muqarrar bo'ladi, qo'rquvlari esa yanada ortib boraverishiga ishora qilgan.

Shunday kishilar bilan do'st va yo'ldosh bo'lmoq kerakki shodligingda shod, hafaligingda hafa bo'lsin, oshga o'rtoq, boshga to'qmoq bo'lmasin.

M.Abdurashidxonov

Ushbu aforizmida metaforadan tashqari bir nechta stilistik vositalardan foydalanilgan. Antiteza va takroring ko'rinishi sifatida aforizmdagi "shodligingda shod, hafaligingda hafa" so'zlarni aytish mumkin. Bir-biriga qarama-qarshi tushunchalar ifodalaganda antitezani, bir so'zning yana qayta foydalanishi sifatida takrorini olish mumkin. Metafora esa "boshga to'qmoq" so'zini yomon do'st sifatida tasvirlaydi ya'ni yomon do'st ham insonni boshiga har xil balolar keltirishi mumkinligini keltirib o'tgan.

Barcha ezguliklar bilim nafi tufaylidir. Bilim bilan xatto osmonga ham yo'l topiladi.

Y.Hojib

Alloma mazkur aforizmida mubolag'a va metafora kabi vositalar orqali bilimning qudrati ulug' ekanligini, hamda cheksiz bo'lgan osmonga ham yo'l topilishiga imkon bor ekanligini ramziy tavirlab o'tgan. "Bilim nafi" deya metaforani ifodalasa, "osmonga ham yo'l topiladi" deb bilimni haddan tashqari ulug' va muhim ekanligini ta'kidlaydi.

Xulosa. Taxlil natijalardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, metafora boshqa stilistik vositalarga nisbatan faol qo'llaniladi. Deyarli ko'p aforizmlar tarkibida boshqa stilistik vositalar bo'lmasa-da, aynan metafora ko'p ishlatiladi. Metaforaning aforizmlar tarkibida uchrashining bir necha sabablari mavjud. Aforizmning boshqa birliklardan qisqa shaklda ekanligi, hamda o'tkir ma'no berishi bilan farq qiladi. Shu jihatdan fikrlarni qisqa, lekin obrazli hamda ramziy ifodalash esa metaforaning asosiy bir qismi sanaladi. Metafora orqali fikr qisqa bo'lsa ham, lekin unda chuqur ma'no berishi, falsafiy g'oyalari bilan kitobxonni jalb etadi. Bundan tashqari metaforada tasvirlangan fikrlar ko'p hollarda hayotiy tajribadan kelib chiqib, misollar keltirib o'tiladi. Metaforadagi sirli chuqur ma'no anglatish, uning boshqa stilistik vositalardan ajratib ko'rsatuvchi jihati hisoblanadi.

REFERENCES

1. R.Wendell. The interpretation of the Lord prayer Q 11:2b-4, in the formative stratum of Q (Q1) according to the literary and cultural perspectives afforded by the affixed aphorisms, Chicago, 2010
2. W.Waddel. Aphorisms in the poetry of Robert Frost. Chapel Hill, 1981
3. R.Terrence. Aphorism and met-aphorism: The aphoristic tradition and the aphorisms of Franz Kafka. Virginia. 1981
4. B.Coyle. The study of aphorism in Wallace Steven's poetry. Nebraska. 1974
5. M.Schepers. Aphoristic thoughts. Leyden. 1997

6. Tashpulatov Z. Aforizmlarning janr xususiyatlari va badiiyati. Filol.fan. nom....diss.- T.: 2006
7. Qobuljonova G. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini.Filol.fan. nom....diss.- T.: 2000. - B. 13. 124
8. Mamaraimova Sh. Olamning milliy lisoniy tasvirida teomorfik metaforaning kognitiv aspekti. Filol.fan. nom....diss.- Qarshi.: 2018. - B. 168
9. Nasrullayeva G. Antroposentrik metaforaning lisoniy, kognitiv va lingvomadaniy aspekti. Filol.fan. nom....diss.- Farg'ona.: 2019. - B. 139
10. Бикертон.Д. Введение в лингвистическую теорию метафоры// Теория метафоры. М.,1990. -С. 43-45. 208
11. Qobuljonova G. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini.Filol.fan. nom....diss.- T.: 2000. - B. 13. 124
12. Sultonsaidova S, Sharipova O'., O'zbek tili stilistikasi. – T.: Yurist media markazi. 2009. – b.112
13. Раимов А, Раимова Н. Ҳикматлар шодаси. – Т.: O'zbekiston. – Б. 64 (400)
14. Ochildiyeв A.S, Turdiyeva D.M, Karimova N.K, Shermuhammedov K.A, Jo'rayev Sh.R, Axmedov A.A, Karimov J.A, Aliyev J.R, Alimov A.U, Meliqo'ziyev J.B. 111 Vatandosh allomalarimiz. – T.: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 397
15. Knowles E. Oxford Dictionary of Aphorisms.– Oxford.: Print Publication, 2014. – P. 1768